Xalqaro turizm huquqi: O'zbekiston uchun tatbiq etiladigan mexanizmlar	1003
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
O'zbekiston fond bozorining raqamli transformatsiyasi va fintech texnologiyalari asosida rivojlantirish istiqbollari.....	1007
A. Ibodullayev	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	1011
Babayev Shavkat Bayramovich	
O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida inklyuziv rivojlanishni ta'minlash yo'llari	1018
Asqarova Mavluda Turabovna	
Tijorat banklari aktivlarining tarkibi va uning zamonaviy holati tahlili.....	1024
Baxriddinov Sharofiddin	
O'zbekistonda ayollar tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ahamiyatli jihatlari	1029
Saidova Subhinigor Azizovna	
Sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy va majburiy sug'urta mukofotlari bo'yicha moliyaviy samaradorlik tahlili.....	1035
Zoyirov Laziz Subxonovich	
The impact of behavioral biases on investment performance	1040
Doston Turgunov Turgunovich	
Yosh tadbirkorlar va startup ekotizimi: imkoniyatlar va muammolar.....	1048
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Sug'urta institutlarining rivojlanish bosqichlari va ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....	1051
Sherov Sanjar Radjabovich	



SUG'URTA INSTITUTLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI

Sherov Sanjar Radjabovich

PhD, dotsent

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot sug'urta institutlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda sug'urtaning qadimgi norasmiy o'zaro yordam shakllaridan boshlab, professional va huquqiy jihatdan mustahkamlangan zamonaviy moliyaviy institutga aylanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, sug'urta institutlarining risklarni taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni tarixiy va mantiqiy ketma-ketlik asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sug'urta instituti, sug'urta tizimi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, sug'urta jamg'armalari, mol-mulk sug'urtasi, shaxsiy sug'urta, sug'urta bozori, investitsiya faoliyati.

Abstract: This study is devoted to a systematic analysis of the stages of formation and development of insurance institutions. The research examines the evolution of insurance from ancient informal mutual assistance practices to a modern financial institution with a well-established professional and legal framework. Particular attention is paid to the role of insurance institutions in risk distribution, ensuring financial stability, and their function in the process of economic reproduction, analyzed in a historical and logical sequence.

Key words: insurance institution, insurance system, risk management, financial stability, insurance funds, property insurance, personal insurance, insurance market, investment activity.

Аннотация: Настоящее исследование посвящено системному анализу этапов формирования и развития страховых институтов. В работе рассматривается процесс эволюции страхования — от древних неформальных форм взаимопомощи до становления профессионального и юридически оформленного современного финансового института. Особое внимание уделено роли страховых институтов в распределении рисков, обеспечении финансовой устойчивости и их значению в процессе расширенного воспроизводства, представленному в исторической и логической последовательности.

Ключевые слова: страховой институт, страховая система, управление рисками, финансовая устойчивость, страховые фонды, имущественное страхование, личное страхование, страховой рынок, инвестиционная деятельность.

KIRISH

Sug'urta institutlari iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatda risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Sug'urta mexanizmlari orqali turli iqtisodiy subyektlarning mol-mulki, hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq xavflar qoplanib, takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Shu bois, sug'urta institutlarining iqtisodiy mohiyatini chuqur anglash va ularning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta institutlarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqalib, dastlab norasmiy va o'zaro yordam tamoyillariga asoslangan shakllarda namoyon bo'lgan. Xo'jalik faoliyatining murakkablashuvi, savdo aloqalarining kengayishi hamda tabiiy va ijtimoiy xavflarning ortib borishi sug'urtaning alohida institut sifatida shakllanishini taqozo etgan. Ayniqsa, xalqaro dengiz savdosining rivojlanishi sug'urta munosabatlarning kengayishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan sug'urta munosabatlari mazmunan boyib, norasmiy uyushmalar doirasidan chiqib, huquqiy jihatdan mustahkamlangan va professional moliyaviy faoliyat turiga aylangan. Sug'urta himoyasining turlari kengayib, mol-mulk sug'urtasidan tashqari, shaxsiy va ijtimoiy



sug'urta shakllari ham rivoj topgan. Statistika usullari va aktuar hisob-kitoblarning joriy etilishi sug'urta faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishiga zamin yaratgan.

Bugungi kunda sug'urta institutlari global moliya bozorining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritib, investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi sug'urta xizmatlari sifatini oshirib, ularning iqtisodiy samaradorligini kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sug'urta institutlari faoliyatining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda o'rganish zamonaviy sug'urta tizimining xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot sohasida olib borilgan ko'p sonli ilmiy tadqiqotlar moliyaviy institutlarning iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirish va iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, moliya sohasida yuz bergan institutsional o'zgarishlar XVIII-asrda Angliyada sanoat inqilobining amalga oshirishida muhim omil bo'lgan [1]. Bu, eng avvalo, kapitallarni markazlashtirish hamda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi risklarni sezilarli darajada pasaytirish bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqib qayd etish lozimki, moliya tizimining rivojlanganlik darajasi iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sir mexanizmi, asosan, moliyaviy tizimlar, xususan, sug'urta instituti tomonidan bajariladigan risklarni kamaytirish va ularni iqtisodiy subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash jarayoni bilan bog'liq.

Zamonaviy iqtisodiyotda shartnomaviy munosabatlarning murakkablashuvi va iqtisodiy aloqalarning kengayishi sharoitida risklarni diversifikatsiya qilish korxonalar va aholi uchun strategik ahamiyatga ega ehtiyojga aylanmoqda. Rivojlangan moliyaviy institutlar iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlash va umumiy beqarorlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Klassik iqtisodchi olim P. Samuelson ta'kidlaganidek, noaniqlik va xavf darajasini pasaytiradigan har qanday iqtisodiy faoliyat jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi [2]. Bunday faoliyat iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini kuchaytirib, investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda resurslardan oqilona foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

V. K. Reykher ta'kidlaganidek, sug'urta instituti o'z faoliyatini dastlab jamoaviy o'zaro yordam tizimlaridan boshlagan bo'lib, keyinchalik davlat va bozor institutlari bilan integratsiyalashgan holda milliy iqtisodiyotda ijtimoiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [3].

L. I. Reytmann fikriga ko'ra, shaxsiy sug'urta va hayot sug'urtasining rivojlanishi sug'urta jamg'armalarini professional boshqarish va ularni investitsiyalarga yo'naltirish imkoniyatini yaratgan, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4].

V. V. Shaxovning ta'kidlashicha, sug'urta boshqa moliyaviy munosabatlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xususan, risklarni baholash va boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish funksiyasini bajaradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida deduktiv va induktiv metodlar, shuningdek, mantiqiy va qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv, statistik usullar hamda sistemali tahlil metodlari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy institutlar axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek, bitimlarni amalga oshirish jarayonidagi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ushbu institutlarning o'ziga xos jihati shundaki, moliya sohasida qo'shimcha qiymat asosan risklarni baholash, tegishli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish orqali shakllanadi. Shu bilan birga, moliyaviy tizim tarkibida sug'urta instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urtani moliyaviy tizimning o'ziga xos bo'g'ini sifatida tadqiq etishda uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, sug'urtaning o'ziga xos belgilarini aniqlash hamda uning shakllanishi va institutsional rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish zarur. Nazariy jihatdan sug'urta mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. U yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan badallar asosida maxsus pul jamg'armasini shakllantirish hamda ushbu jamg'armani tasodifiy hodisalar natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga yo'naltirishga oid iqtisodiy munosabatlar tizimini ifodalaydi.

Rossiyalik iqtisodchi olim V. Shaxov ta'kidlashicha, sug'urta boshqa moliyaviy munosabatlardan bir qator muhim xususiyatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, sug'urta risklari tasodifiylik, zararning notekis taqsimlanishi hamda oldindan aniq bashorat qilib bo'lmazligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, sug'urta tizimida zararni jamg'arma ishtirokchilari o'rtasida o'zaro taqsimlashga asoslangan yopiq mexanizm qo'llaniladi. Mazkur mexanizm sug'urta himoyasining iqtisodiy mohiyatini belgilab, uni moliya tizimining boshqa bo'g'inlaridan ajratib turadi.



Ikkinchidan, sug'urtaning tarixiy rivojlanishi uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ilk davrlarda sug'urta moddiy shaklda amalga oshirilib, moliyaviy ko'mak natural zaxiralar (masalan, don, yem-xashak) hisobidan ko'rsatilgan. Tovar-pul munosabatlari rivojlangan sari ushbu tizim pul shakliga o'tgan. Shu sababli, sug'urta moliyaviy tizimga nisbatan uzoqroq tarixga ega bo'lib, uning evolyutsiyasi zararni pul ko'rinishida taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshgan.

Uchinchidan, sug'urta jamg'armasi mablag'laridan foydalanish ehtimoliy xarakterga ega bo'lib, u faqat sug'urta hodisasi ro'y bergan holatdagina amalga oshiriladi va xarajatlar faqat jamg'arma ishtirokchilari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi [5].

Shu tariqa, sug'urta moliya va kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan umumiy jihatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, uni alohida iqtisodiy kategoriya va mustaqil bozor instituti sifatida ajratib turuvchi o'ziga xos funksiyalarga ega. Sug'urta institutining bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati quyidagi -rasmda keltirilgan asosiy funksiyalarda namoyon bo'ladi.(1-rasm)

Risklarni qoplash funksiyasi

- riskning mavjudligi sug'urtaga bo'lgan talabni shakllantiradi hamda sug'urta jamg'armasi doirasida mablag'larni qayta taqsimlash orqali sug'urta hodisalari natijasida yuzaga kelgan moliyaviy yo'qotishlarni qoplashni ta'minlaydi;

Preventiv funktsiya

- sug'urta hodisalarining yuzaga kelish ehtimolini pasaytirishga qaratilgan tashkiliy, texnik va iqtisodiy chora-tadbirlarni moliyalashtirish orqali risklarning oldini olish yoki ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi;

Jamg'arish funksiyasi

- sug'urta shartnomalari asosida belgilangan sug'urta summalarini muayyan muddat davomida to'plash hamda kelgusida sug'urtalanuvchining moliyaviy manfaatlarini ta'minlash imkonini yaratadi;

Nazorat funksiyasi

- sug'urta jamg'armasi mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan nazoratni ta'minlab, ulardan maqsadli va samarali foydalanishni kafolatlaydi.

1-rasm. Sug'urta institutining asosiy funksiyalari¹

Makroiqtisodiy darajada sug'urta instituti jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish mexanizmining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda sug'urta xarajatlari milliy mahsulot hajmini oshirishga xizmat qiluvchi investitsiya shakli sifatida qaraladi.

Sug'urta institutining iqtisodiy mohiyatini anglash va uning jamiyatdagi takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rnini aniqlash uchun sug'urta faoliyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliya, bank va sug'urta institutlari evolyutsiyasini o'rganish zamonaviy iqtisodiy muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi 1-jadvalda sug'urta institutlari faoliyatining rivojlanish jarayoni olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalari asosida shartli ravishda o'n bosqichga ajratilgan holda tizimlashtirib ko'rsatib berilgan(1-jadval).

1-jadval. Sug'urta institutlari faoliyatining rivojlanish bosqichlari²

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlari	Sug'urta faoliyatining shakli
I bosqich	Qadimgi davr – XIII-asrgacha	Tabiiy va ijtimoiy risklarning mavjudligi, zararlarni jamoaviy qoplash zarurati	Norasmiy o'zaro yordam, jamoaviy javobgarlik
II bosqich	XIII–XIV-asrlar	Dengiz savdosining rivojlanishi, yuk va kemalarni himoyalash ehtiyoji	Dengiz sug'urtasi, bir martalik shartnomalar
III bosqich	X–XII-asrlar (Yevropa)	Hunarmandlar uyushmalarida zararlarni qayta taqsimlash	Uyushma sug'urtasi, o'zaro yordam
IV bosqich	XIV–XVII-asrlar	Sug'urta munosabatlarning murakkablashuvi	Dastlabki sug'urta jamg'armalari

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



V bosqich	XVII-asr oxiri	Huquqiy tartibga solish zarurati	Dengiz sug'urtasi huquqi (1681-yil Fransiya Dengiz kodeksi)
VI bosqich	XVIII-asr	Hayot sug'urtasining shakllanishi	Aktuar va statistik asoslangan sug'urta
VII bosqich	XIX-asr	Sug'urta biznesining professional tus olishi	Professional sug'urta bozori
VIII bosqich	XIX-asr oxiri – XX-asr boshlar	Ijtimoiy va sog'liq sug'urtasi rivoji	Ijtimoiy sug'urta tizimlari
IX bosqich	XX-asr	Davlat tomonidan tartibga solish	Majburiy va ixtiyoriy sug'urtalar
X bosqich	XXI-asr	Raqamlashtirish va global integratsiya	Raqamli sug'urta tizimi

Tarixiy manbalar sug'urta institutining paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Xo'jalik faoliyati har doim tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirida kechgan bo'lib, bu jarayon zarar ehtimoli va uni qoplash zaruratini yuzaga keltirgan. Sug'urta institutining rivojlanishi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, aksariyat olimlar uning shakllanishini xalqaro dengiz savdosining taraqqiyoti bilan bog'laydilar.

Dengiz yuk tashishlari sug'urta institutining shakllanishida dastlabki muhim omil bo'lgan. XIII-asr oxirlaridan boshlab O'rta Yer dengizi mintaqasida dengiz sug'urtasi keng tarqalgan. Florensiya, Venetsiya va Genuya savdogarlari sug'urta ishining ilk tashabbuskorlari hisoblanib, ular o'zaro javobgarlikka asoslangan shartnomalar orqali yuklar va kemalar xavfsizligini ta'minlagan. Ma'lum bo'lgan eng qadimgi sug'urta hujjati 1347-yilda Genuyada rasmiylashtirilgan bo'lib, u "Santa Klara" kemasining belgilangan muddatda manzilga yetib kelish-kelmasligi bilan bog'liq risklarni qamrab olgan.

Sug'urta instituti dastlabki rivojlanish bosqichida norasmiy shaklda faoliyat yuritgan. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundan iborat ediki, zararlarni belgilangan professional guruhlar (hunarmandlar gildiyalari, kasblar uyushmalari va shunga o'xshash tuzilmalar) doirasida qayta taqsimlash orqali kompensatsiya qilish prinsipi tatbiq etilgan. Bu turdagi institutlar faoliyati o'zaro yordam tamoyili tarzida ifodalangan bo'lib, ko'pincha zararlarni qoplash miqdori va sug'urta holatlari aniq belgilanmagan. Bundan tashqari, doimiy sug'urta to'lovlari a'zolar tomonidan muntazam tarzda yig'ilimgan, sug'urta jamg'armasini oldindan shakllantirish prinsipi mavjud bo'lmagan hamda ushbu jamg'armalarni boshqarish uchun maxsus institutlar tashkil etilmagan. Shu bilan birga, guruh tarkibidagi hunarmandlar va savdogarlar bir vaqtning o'zida ham sug'urtalanuvchi, ham sug'urtalovchi sifatida faoliyat olib borgan.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada sug'urta hunarmandlar uyushmalarining paydo bo'lishi X–XII-asrlarga taalluqlidir. Angliya, Germaniya, Daniya va Islandiyada bozor munosabatlari rivojlanishi bilan uyushmalardagi moddiy o'zaro yordam tizimi aniqroq shakl oldi. Aksariyat mamlakatlarda o'rta asr uyushma sug'urtasi zararlarni keyinroq taqsimlash tizimidan muntazam belgilangan to'lovlar tizimiga o'tgan. Birinchi marta yillik sug'urta to'lovlari Angliya qirolining Etselstan kodeksida X-asrning birinchi yarmida qayd etilgan [6].

Keyingi rivojlanish bosqichlari sug'urta himoyasi turlarini, sug'urta holatlari ro'yxatini va to'lov miqdorlarini kengaytirish yo'li bilan kechdi. Zararni qoplash uslublaridagi farqlar asosan turli kasbiy faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy sharoitlari bilan izohlanadi. Masalan, savdo faoliyati uzoq muddat davomida bir martalik shartnomalar asosida sug'urta tizimini saqlab qolgan, chunki uzoq safarlar, dengiz va quruqlik yo'llari turli xavflarga duch kelgan va savdo karvonlaridagi ishtirokchilar tarkibi doimiy bo'lmagan. Shu bilan birga, mahalliy yashovchi kasb egalari uchun sug'urta munosabatlari nisbatan yanada tizimli va rivojlangan shakl olgan. Doimiy yashash va bir hududda iqtisodiy faoliyat olib borish professional uyushmalarning barqaror tarkibdagi ishtirokchilar bilan shakllanishiga yordam bergan, moddiy o'zaro yordam tizimi yanada universal xarakterga ega bo'lgan. Sug'urta himoyasi endi faqat mol-mulkka emas, balki inson sog'lig'i va hayotiga ham taalluqli bo'lgan. Shu tariqa, shaxsiy sug'urta kabi yangi sug'urta xizmatlari paydo bo'ldi; ular vaqt o'tishi bilan hunarmand uyushmalari sug'urta jamg'armalarida ulushini oshirdi. Zararni birinchi taqsimlash shakli mukammallashib, doimiy sug'urta jamg'armasini yig'ish tizimi paydo bo'ldi.

Sug'urta himoyasini tashkil etish jarayonining murakkablashuvi uni huquqiy jihatdan mustahkamlash va rasmiylashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Ushbu jarayonning birinchi sistematik amalga oshirilishi 1681-yilda Fransiya Qirol Lyudovik XIVning Dengiz kodeksida qayd etilgan. Ushbu kodeks savdo dengiz kemachiligi munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy qonun bo'lib, kemanding va ekipajning huquqiy maqomi, tashish va sug'urta tashkiloti haqida normalarni o'z ichiga olgan. Ushbu kodeks keyinchalik yetakchi Yevropa davlatlarida dengiz sug'urtasi huquqining asosiga aylangan. Napoleon Bonapart davrida kodeksning sug'urta bilan bog'liq qismi 1807-yilda qabul qilingan savdo kodeksiga kiritilgan va bir qator Yevropa mamlakatlarida sug'urta huquqi bo'yicha namuna sifatida qabul qilingan.

Sug'urta institutining rasmiylashtirilishi zarurati savdo aloqalari murakkablashishi va bozor munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liq edi. Ko'p hollarda bu jarayon sug'urta shartnomalarini tushuntirishdagi kelishmovchiliklar,



“sug’urta xavfi”, “sug’urta holati”, “sug’urtalovchining javobgarligi” kabi tushunchalarni aniqlash va kodifikatsiya qilish zaruriyati bilan izohlanadi.

XVIII-asr o’rtalarida Angliyada uzoq muddatli hayot sug’urtasi paydo bo’ldi. Ushbu sug’urta turining rivojlanishi xavfni baholashda statistik usullar va o’lim jadvallarini yaratish bo’yicha birinchi urinishlar bilan chambarchas bog’liq edi. Ehtimollar nazariyasi rivojlanishi va statistik tahlil metodlarini amaliyotga joriy etish hayot sug’urtasini ilmiy asosda tashkil etishga imkon berdi, bu metodlar aktuar usullar deb nomlandi. Birinchi yirik hayot sug’urtasi instituti 1706-yilda Londonda tashkil etilgan. Ingliz olimlari ushbu sohada ko’plab innovatsion yondashuvlarning yetakchisi bo’lgan: jumladan, sug’urtalanuvchi vafot etgan taqdirda belgilangan sug’urta summasini to’lash shartnomalari ko’plab Yevropa sug’urta kompaniyalari uchun standart namuna sifatida xizmat qilgan; shuningdek, sug’urta xaxiralarini hisoblash usullari hozirgi kunda ham amaliyotda qo’llanilmoqda.

Yirik sug’urta uyushmalarining paydo bo’lishi, keng mijoz bazasi va sezilarli moliyaviy resurslarni yig’ish qobiliyati sug’urtaning daromadli biznesga aylanishini ko’rsatgan. Yirik kompaniyalar sug’urta jamg’armasi mablag’larini qarz manbai va investitsiyalardan qo’shimcha daromad olish imkoniyati sifatida yo’naltira boshlagan. Bank va boshqa moliya institutlari bilan aloqalarni mustahkamlash sug’urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlagan va faoliyat samaradorligini oshirgan.

XVIII-asrda hayot sug’urtasining ilmiy asoslari shakllanganidan so’ng, XIX-asrda sug’urta institutlari jadal rivojlanish bosqichiga o’tdi. Bu davrda Angliya va boshqa Yevropa davlatlarida sug’urta kompaniyalari soni ortib, sug’urta biznesi professional tizimga aylana boshladi. Masalan, XIX-asrda bir nechta hayot sug’urtasi jamiyatlari tashkil etilgan bo’lib, ularning faoliyati nafaqat Buyuk Britaniyada, balki Shimoliy Amerikada ham sug’urta tartib-taomillarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan.

Bu davrda sug’urta jamiyatlarining asosiy vazifasi a’zolar tomonidan to’plangan sug’urta mukofotlarini risklarni qoplashga mo’ljallangan jamg’armaga yo’naltirish hamda zarurat tug’ilganda yetkazilgan zararlarni qoplashdan iborat edi. Shu bilan birga, sug’urta kompaniyalari mavjud moliyaviy resurslarni samarali boshqarish orqali investitsiya jarayonlarida faol ishtirok eta boshladi, bu esa moliyaviy bozorlar rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida ijtimoiy hamda sog’liq sug’urtasi kontsepsiyalari ham shakllana boshladi. Yevropa va AQShda kasaba uyushmalari, do’slik jamiyatlari va boshqa birlashmalar a’zolar va ularning oilalarini kasallik yoki jiddiy yo’qotishlardan himoya qilishni maqsad qilgan sug’urta shakllarini tatbiq qila boshladilar, bu esa sug’urtaning ijtimoiy funksiyasini kuchaytirdi.

Bu bosqichda kasallik, nogironlik yoki umr bo’yi daromad yo’qotilishi kabi holatlarda sug’urta qoplanadigan xizmatlar ham kengaydi. Buning oqibatida sug’urta tizimi nafaqat mol-mulkni, balki insonlarning hayoti va sog’lig’iga oid risklarni ham qoplashda muhim rol o’ynay boshladi.

XX-asr sug’urta bozori uchun yangi bosqich bo’ldi: sug’urta tashkilotlarining faoliyati xalqaro huquqiy normalar va davlat regulativ talablari asosida tartibga solina boshlandi. Ko’plab davlatlarda sug’urta kompaniyalari faoliyati qat’iy nazorat ostiga olindi, bu esa iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va bozor barqarorligini ta’minlashga yordam berdi. Shuningdek, avtomobil sug’urtasi, professional javobgarlik sug’urtasi, biznes risklari sug’urtasi va boshqa yangi sug’urta turlari kengaya boshladi. Bu innovatsiyalar bozorni yanada xilma-xil va barqaror qilishga xizmat qildi, shuningdek, sug’urta kompaniyalariga investitsiya resurslarini kengaytirish imkonini berdi.

Bugungi kunda esa sug’urta tizimi global darajada integratsiyalashib, raqamli texnologiyalar orqali yanada takomillashib bormoqda. Onlayn sug’urta xizmatlari, katta ma’lumotlar (big data) asosidagi risklarni modellashtirish va raqamli aktuar tahlillar kabi innovatsion yondashuvlar sug’urta bozori samaradorligini oshirmoqda. Bu yo’nalishlar sug’urta xizmatlarini yanada moslashuvchan, tezkor va mijoz ehtiyojlariga mos holga keltirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug’urta institutlarining rivojlanish jarayoni uzoq tarixiy bosqichlarni o’z ichiga olib, dastlab o’zaro yordamga asoslangan norasmiy munosabatlardan boshlangan va keyinchalik murakkab moliyaviy-huquqiy tizimga aylangan. Ushbu jarayon iqtisodiy faoliyatning kengayishi, savdo aloqalarining rivojlanishi va risklar ko’lamining ortishi bilan bevosita bog’liq bo’lgan.

Sug’urtaning professional institut sifatida shakllanishi moliyaviy resurslarni markazlashtirish, risklarni qayta taqsimlash hamda investitsiya faoliyatini rivojlantirish imkonini yaratdi. Natijada sug’urta kompaniyalari nafaqat zararlarni qoplash, balki moliya bozorlarining barqaror rivojlanishiga hissa qo’shuvchi muhim subyektga aylandi.

Sug’urta institutlari faoliyatining rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda o’rganish ularning iqtisodiy mohiyatini chuqur anglash, zamonaviy sug’urta bozoridagi tendensiyalarni aniqlash hamda sug’urta tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Создание институциональных основ рыночной экономики: Доклад Всемирного банка о мировом развитии за 2002 г. — М.: Весь мир, 2002. — С. 76.
2. Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. — М.: Лаборатория базовых знаний, 2000. — С. 445.
3. Райхер В. К. Общественно-исторические типы страхования. — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1947. — 282 с.
4. Рейтман Л. И. Личное страхование в СССР // Финансы. — 1969. — № 6. — С. 6.
5. Шахов В. В. Страхование как самостоятельная экономическая категория // Вестник Финансовой академии. — 1998. — № 1. — С. 17–25.
6. Губарь О. Возникновение и эволюция института страхования // Страховое дело. — 2001. — № 8. — С. 53.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

